


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, III-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL TO'SIQLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI	10
I. R. Berdikulova	
KIMYO SANOATINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA TARMOQ KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBI	14
Onorboev Sh.M.	
A WEEKLY LOGISTICS-CONTROLLING SYSTEM FOR EXPORT SUPPLY CHAINS: CORRIDOR-LEVEL EVIDENCE FROM A TEXTILE EXPORTER.....	26
Mukhammadiyahaminova Shakhzoda Sherzodovna	
FOTOVOLTAIK-TROMBE DEVORI ASOSIDA HAVONI ISITISH, TOZALASH VA ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASHNING ILMIY-METODIK TAHLILI.....	36
Rahimova Volida Karim qizi	
XAVFSIZ HAYOT TARZINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MODEL.....	42
Nigmatjonov Sardor Abdumannovich	
РАЗВИТИЕ МЕТОДОЛОГИИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД.....	49
Дониёрова Зухрабону Алишер кизи	
KAMBAG'AL OILALARNI TADBIRKORLIKKA JALB QILISHDA DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH VA BOSHQARISH (MENEJMENT) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI...53	
Bazarbaeva Asiya Shalkarbaevna	
MOLIVAVIY INKLYUZIVLIK KONSEPSIYASI: BANK XIZMATLARINING KAMBAG'ALLIK DARAJASIGA TA'SIRINING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	58
Niyozov Zuxur, Abdujalilov Shexroz, Zubaydulloyeva Damira	
KORXONALARNI QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	61
Davletov Ikrom Raximberganovich	
ИОРДАНИЯ КАК ТУРИСТИЧЕСКИЙ ЦЕНТР БЛИЖНЕГО ВОСТОКА.....	67
Салихова Алина Муратовна	
QUYOSH ENERGIYASINI KONVERSIYALOVCHI OPTOELEKTRON GELIOTRANSFORMATORLARNING FIZIK-TEXNIK ASOSLARI	73
Axunov Qambarali, Xomidov Abdullajon, Mashrapova Irodaxon	
XXI ASRDA O'ZBEKISTONDA ELEKTR ENERGIYASINI TEJASHDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR.....	78
Xamrakulova Xilola, Yusupova Sevaraxon	
HUDUDIY IXTISOSLASHUVNING SHAKLLANISH OMILLARI VA MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI	83
Sodiqova Nigora	
BANKLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA AKTIVLAR SAMARADORLIGI TAHLILI.....	89
Muminov Bekzod Polvonovich	
ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА	95
Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна	
MILLIY KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	103
G'aniyev Elyor Sobirjonovich	
DIGITALIZATION OF INSOLVENCY PROCESSES: THE ROLE OF A UNIFIED ELECTRONIC PLATFORM IN ENSURING TRANSPARENCY AND ECONOMIC EFFICIENCY	110
Damirjon Nurmatovich Soliyev	



О ПРОЦЕССАХ ЦИФРОВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	116
Джумаев Аскар Хайдарович SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINING HUQUQIY, TASHKILY VA RAQAMLI BAZASINI SHAKLLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR.....	121
Shamsiev O'ktam Sayfitdinovich KO'P XONADONLI UYLARDA KOMMUNAL XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	127
Muminov Obidjon Odilovich MINTAQA VA UNING HUDUDLARIDA MEHNAT OMILI HISOBIGA SANOAT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'LLARI.....	135
Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich КЛАССИФИКАЦИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ С УЧЕТОМ ОПТИМИЗАЦИИ БИЗНЕС ПРОЦЕССОВ.....	141
Джуманов А.А. O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNI FAKTOR TAHLIL VA KO'P OMILLI REGRESSIYA ASOSIDA BAHOLASH.....	152
V.I. Isroilov, V.B. Ibragimov ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ БАНКОВСКИХ УСЛУГ.....	158
Мамутова Айгуль Калмурзаевна QUYOSH NOVUZLARIDA SODIR BO'LUVCHI ISSIQLIK JARAYONLARINING BIR O'LCHAMLI MATEMATIK MODELI.....	165
M.M. Maxmudova, J.J. Kamolov ФАКТОРЫ, СДЕРЖИВАЮЩИЕ РАЗВИТИЕ БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	172
Алиев Али Комил угли, Каримова А. ISTE'MOL KREDITLARINING ANAMIYATI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	176
S. Qayumov, M. Qurbonov, A. S. Abduraxmanov AVTOTRANSPORT XIZMATLARI SAMARADORLIK DARAJASINI OMILLI TAHLILI.....	179
Raximov Azamat Hamroqulovich MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA FIRMALARNING TASHQI BOZORLARGA INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI: XORIY TAJRIBASI.....	183
Ozodova Farida Zarif qizi	



MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA FIRMALARNING TASHQI BOZORLARGA INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI: XORIJ TAJRIBASI



Ozodova Farida Zarif qizi

Osiyo xalqaro universiteti tayanch doktoranti

Email: feya7589@gmail.com

ORCID: 0009-0009-1743-1935

Annotatsiya: Mazkur maqolada mintqa iqtisodiyotini rivojlantirishda firmalarning tashqi bozorlarga integratsiyalashuv jarayonlari hamda ushbu jarayonning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri xususida so'z yuritiladi. Shuningdek, maqolada ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilinadi va firmalar uchun tegishli xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: mintqa iqtisodiyoti, tashqi bozorlarga integratsiyalashuv, firmalarning internatsionallashuvi, iqtisodiy samaradorlik, eksport faoliyati.

Аннотация: В данной статье рассматриваются процессы интеграции фирм на внешние рынки в контексте развития региональной экономики, а также влияние данных процессов на повышение экономической эффективности. Кроме того, в статье проводится анализ опыта передовых зарубежных стран и на основе полученных результатов формулируются соответствующие выводы и рекомендации для фирм.

Ключевые слова: региональная экономика, интеграция на внешние рынки, интернационализация фирм, экономическая эффективность, экспортная деятельность.

Annotation: This article examines the processes of firms' integration into foreign markets in the context of regional economic development and analyzes the impact of these processes on economic efficiency. Furthermore, the article explores the experience of advanced foreign countries and, based on the findings, provides relevant conclusions and recommendations for firms.

Keywords: regional economy, foreign market integration, internationalization of firms, economic efficiency, export activity.

KIRISH

Firmalar iqtisodiyotining o'sishi va unumdorligi mintqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va daromadlarning ortishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ammo rivojlanayotgan mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar firmalarning o'sishi uchun mintaqalarda sezilarli to'siqlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Ularning sabablari quyidagilar:

ko'pchilik rivojlanayotgan mintaqalarda kichik firmalar yirik hajmdagi ishlab chiqarishni amalga oshira olmaydi, natijada ular iqtisodiy imkoniyatlarni ma'lum darajada cheklaydi;

firmalar ish tajribasi va ishlab chiqarishning ortishi ham iqtisodiy rivojlanishga sezilarli hissa qo'sha olmaydi (mintaqalardagi biznes muhiti va bozorlardagi shart-sharoitlar yoki bozor integratsiyasining pastligi);

mintaqalardagi firmalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot yoki xizmatlar past unumdorlikka ega, bu esa iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi [1].

Yuqorida sanab o'tilgan holatlarni izohlash uchun bir qator sabablar mavjud. Jumladan, kredit cheklovleri, iqtisodiyotni tartibga solish tizimining nosozligi yoki ishlab chiqarish jarayonini to'g'ri boshqarish uchun malakaning yetishmovchiligi. Biroq bularning ichida eng e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihat bu bozor integratsiyasining yetishmovchiligidir. Ta'kidlash joizki, mintaqalardagi korxonalar ko'pchilik holatda o'z mahsulotlarini faqat milliy bozor miqyosida sotish qobiliyatiga ega bo'lishadi, chunki iste'molchilar turli korxonalar mavjudligi va mahsulot

sifati haqida ma'lumot olishda qiyinchiliklarga duch kelishadi¹. Shu tarzda, firmalarning potensial mijoz bazasining cheklanganligi yaxshi ishlayotgan firmalarning kengayish imkoniyatlarini susaytiradi va ular ishlab chiqarish samaradorligidan (ya'ni, ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali bir birlik mahsulot tannarxini kamaytirish) foydalana olmaydi. Bundan tashqari, bozorda raqobatning sustligi sababli, past samaradorlikka ega firmalar ham faoliyat yuritishda davom etaveradi. Bu esa iqtisodiyotning umumiy mahsuldorligini pasaytiradi va firmalar o'rtasidagi mahsuldorlik darajalari farqining uzoq muddat saqlanib qolishiga olib keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda firmalarning tashqi bozorlarga integratsiyalashuv jarayonlari zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Globallashtirish sharoitida korxonalarining xalqaro bozorlardagi ishtirokini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish hamda global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvi hududiy iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois mazkur masala ko'plab xorijiy olimlar tomonidan turli nazariy va amaliy jihatlar kesimida tadqiq etilgan. Xususan, J. R. Tybout, D. O. Stahl, C. Syverson va M. Melitz tadqiqotlarida xalqaro savdo va bozor raqobatining korxonalar samaradorligiga ta'siri asoslab berilgan. K. D. Brouthers, A. Delios, W. J. Henisz, P. J. Buckley, S. Makino, S.-J. Chang, P. Deng va boshqa olimlar esa firmalarning xorijiy bozorlarga kirish strategiyalari, investitsiya faoliyati hamda institutsional omillarning xalqaro integratsiyalashuv jarayonlariga ta'sirini o'rganishgan. S. A. Frick, A. Rodríguez-Pose va M. D. Wong tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa hududiy rivojlanish, maxsus iqtisodiy zonalar va tashqi iqtisodiy aloqalarning iqtisodiy o'sishdagi ahamiyati yoritilgan.

Biroq mavjud tadqiqotlarda firmalarning tashqi bozorlarga integratsiyalashuv jarayonlarining mintaqaviy iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishga ta'siri yetarli darajada kompleks o'rganilmagan. Mazkur tadqiqotning o'ziga xos jihati shundaki, unda xorijiy tajriba asosida firmalarning tashqi bozorlarga integratsiyalashuvi mintaqalar iqtisodiy barqarorligi, eksport salohiyati va hududiy raqobatbardoshlikni oshirish omili sifatida baholanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mintaqaviy iqtisodiyotini rivojlantirishda firmalarning o'zaro iqtisodiy integratsiyasi mohiyati va uning xalqaro savdo aloqalaridagi o'рни, iqtisodiy integratsiyaning tashqi savdo bilan uzviy bog'liqligi, tashqi bozorlarga integratsiyalashuvning mintaqaviy iqtisodiyotga bo'lgan ijobiy ta'sirini ilmiy va uslubiy nuqtayi nazardan tadqiq qilishda dialektik va tizimli yondashuvlar, qiyosiy va solishtirma tahlil hamda guruhlash usullari qo'llanilgan.

Maqolaning maqsadi iqtisodiy jarayonlarning jadallashuvi sharoitida iqtisodiy integratsiyani mohiyatan tavsiflovchi firmalar faoliyatini ilmiy taraflama tahlil qilish, tashqi bozorlarga integratsiyalashuv jarayonlarining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va uni rivojlantirish uchun takliflar ishlab chiqishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor yuqori samaradorlikka ega firmalarni rag'batlantirishda va past samaradorlikdagi firmalarni siqib chiqarishda to'siqlarga duch keladi. Ushbu holat iste'molchilarning bozordagi turli mahsulotlar va xizmatlar haqida ma'lumot olishda duch keladigan to'siqlari [2], bozor strukturasi va mahsulotlar o'rnini bosish imkoniyati [3], shuningdek, savdo to'siqlari va resurslarni qayta taqsimlashdagi cheklovlar [4] kabi tadqiqotlarda qayd etilgan. Buning asosiy sabablaridan biri bozor integratsiyasining samarali ishlashiga qo'yilgan turli cheklovlardir. Cheklovlar o'z ichiga yuqori tranzaksiya xarajatlari, o'rinbosar mahsulotlarning yetishmasligi hamda tariflar va boshqa savdo to'siqlarini olib, firmalarning bozor bosimidan himoyalashiga olib keladi.

So'nggi yillarda imtiyozli savdo kelishuvlarining soni keskin ortib bormoqda. Jahon Savdo Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 1948-yildan 2024-yilgacha Yevropada 163 ta kelishuv, Sharqiy Osiyoda 105 ta, Janubiy Amerikada 72 ta va Shimoliy Amerikada 50 ta mintaqaviy savdo kelishuvlariga erishildi².

Xalqaro bozorga kirish — bu kompaniyalar tomonidan qabul qilinadigan strategik va uzoq muddatli rivojlanishga yo'naltirilgan muhim boshqaruv qarorlaridan biridir. Mazkur qaror kompaniyaning yangi geografik bozorlarda faoliyat yuritishini ta'minlash bilan birga, uning global o'sishi, strategik raqobatbardoshligi va uzoq

1 Kam daromadli mamlakatlarda bozorlar ko'proq mahalliy xarakterga ega bo'lishi mumkin, buning bir nechta sabablari mavjud: aholining ko'pchilik qismi qishloq joylarida istiqomat qilganligi uchun hududlarning bir-biridan uzoqda joylashgan va transport infratuzilmasining yetishmovchiligi; korxonalarining samarali reklama qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi, yuqori xarajatlar; axborot yig'uvchi vositalar (masalan, sharh saytlar) cheklangan bo'lishi; shuningdek, shartnoma tuzish va bajarilishiga oid xarajatlar ko'pligi, chunki fuqarolik sudlari va boshqa nizolarni hal qilish mexanizmlari kamroq rivojlangan yoki keng joriy etilmagan.

2 <https://doi.org/10.31893/multirev.2024spe042>



muddatli barqaror taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [5]. Shu sababli, bu mavzu ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan va turli tadqiqotchilar tomonidan turli nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilingan [6].

Xalqaro bozorga kirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, u bir nechta muhim jihatlarni o'z ichiga oladi. Birinchi va eng asosiy jihat — bu kompaniya xalqaro bozorga qanday usulda kirishini belgilashdir. Boshqacha aytganda, xalqaro bozorga kirish usuli kompaniyaning xalqaro bozordagi ishtirokini qanday tashkillashtirishini, ya'ni mahsulot yoki xizmatlarni eksport qilish, litsenziya asosida faoliyat yuritish, qo'shma korxonalar tashkil etish yoki to'liq egalik qilinadigan filial ochish kabi yo'llardan birini tanlashi bilan bog'liq [7].

Ikkinchi muhim jihat xalqaro bozorga kirish vaqtiga asoslangan tanlov bo'lib, kompaniya yangi bozorda birinchi ishtirokchi (first mover), erta kiruvchi (early entrant) yoki kech kiruvchi sifatida faoliyat boshlashi mumkin [8]. Har bir kirish vaqti o'ziga xos afzalliklar va xavflarga ega. Masalan, bozorga birinchi bo'lib kirgan kompaniyalar tezda mijozlarning e'tiborini jalb qilib, brend ustunligini egallaydi, biroq ular noaniqlik va institutsional tavakkalchiliklarga duch keladilar. Aksincha, kechroq kiruvchi kompaniyalar ilgari faoliyat yuritganlarning tajribasidan foydalanib, xavflarni kamaytirishi mumkin, ammo bu holatda bozorda o'z ulushini kengaytirish imkoniyatlari chegaralangan bo'ladi.

Uchinchi muhim komponent — bu xalqaro bozorga kirish motivlaridir. Kompaniyalar xalqaro bozorga turli maqsadlar tufayli kirishadi: ba'zilar uchun asosiy maqsad xorijiy bozorlardan yangi bilim va texnologiyalarni olish bo'lsa, boshqalari uchun bu bozor hajmi, mijozlarga yaqinlik, ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish yoki resurslardan foydalanishdir [9].

Nihoyat, kompaniya xalqaro bozorga kirishda joylashuv tanlovini amalga oshiradi. Bu tanlov odatda qaysi mamlakat yoki mintaqada faoliyat boshlashini anglatadi [10].

Xalqaro bozorlarga kirish orqali mintaqalarda boshqa iqtisodiy integratsiya jarayonlari ham boshlanadi, chunki kompaniya yoki mamlakat global iqtisodiy tizimga faol qo'shilib, o'z faoliyatini xalqaro standartlar va talablar asosida moslashtiradi. Bu jarayon doirasida eksport, investitsiyalar, hamkorlik tarmoqlari kengayadi va bu, o'z navbatida, iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirib, mamlakat yoki korxonaning xalqaro bozordagi o'rnini mustahkamlaydi (1-jadval).

1-jadval

Integratsiyalashuv orqali barqaror rivojlanish – xorijiy mamlakatlar tajribalari³

Mamlakat nomi	Integratsiyalashuv shakli	Barqaror rivojlantirishga olib kelgan natijalar	Asosiy omillar va muammolar
AQSH	Raqamli infratuzilma, fintech va xizmatlar eksporti; xalqaro savdo va investitsiya siyosati; innovatsion ekotizimlar	Xizmatlar eksporti va raqamli texnologiyalar orqali iqtisodiy o'sish; global bozorlar bilan integratsiya; investitsiya oqimlari va texnologik transferlar	Raqamli bo'linish; savdo siyosati va tariflar; mehnat bozorida o'zgarishlar; ekologik va ijtimoiy barqarorlikka e'tibor
Xitoy	Raqamli iqtisodiyot + eksportning yangilanishi; bozorga integratsiyalashuvni kuchaytirish; raqamli infratuzilma siyosatlar	Eksport mahsulotlarining sifat va murakkabligi oshdi; raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali xalqaro raqobatbardoshlik yaxshilandi; iqtisodiy o'sish va eksport strukturasi optimizatsiya	Yuqori darajadagi inson kapitali talab etiladi; hududiy farqlar; raqamli bo'linish (digital divide) xavfi; siyosiy va normativ muhit muhim rol o'ynaydi
Rossiya	Energetika eksporti; sanoat modernizatsiyasi; xalqaro savdo va investitsiya siyosati	Energetika resurslari orqali iqtisodiy o'sish; sanoatni modernizatsiya qilish; tashqi bozorlar bilan integratsiya	Sanksiyalar va siyosiy cheklovlar; texnologik rivojlanishning sekinlashuvi; ekologik va ijtimoiy barqarorlikka e'tibor
Yaponiya	Xalqaro terminal va port operatsiyalariga kirish; tashqi bozorlar, infratuzilma loyihalarida ishtirok; transport va logistika sohasida hamkorliklar	Tashqi operatsiyalar orqali kompaniyalar xalqaro standartlarga moslashdi; barqaror infratuzilma va operatsion jarayonlar rivojlandi; raqobatbardoshlik oshdi	Bozor infratuzilmasining murakkabligi; tashqi loyihalarda PPP shakllarining kam tajribasi; siyosiy-huquqiy muhit va moliyalashtirish imkoniyatlari ahamiyatli

XULOSA VA TAKLIFLAR

Globalashuv va xalqaro integratsiya sharoitida mintaqa iqtisodiyoti o'zining avtonom tabiati bilan emas, balki tashqi iqtisodiy aloqalarga kirishish qobiliyati, global qiymat zanjirlariga qo'shilish darajasi va xalqaro standartlarga moslashish salohiyati orqali rivojlanadi. Bu esa har bir mintaqa uchun alohida iqtisodiy strategiyalar, eksport klasterlari, texnologik infratuzilma va logistik tizimlarni yaratishni talab etadi. Masalan, "new regionalism" nazariyasiga ko'ra [11], mintaqalar faqat milliy siyosat obyekti sifatida emas, balki xalqaro iqtisodiy o'yinchilarning subyekti sifatida shakllanadi. Shu bois, har bir mintaqa global bozor sharoitida o'zining iqtisodiy manfaatlarini himoya qila oladigan, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaradigan va investitsiyalar uchun jozibador muhit yaratadigan struktura sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tybout, James R. 2000. "Manufacturing Firms in Developing Countries: How Well Do They Do, and Why?" *Journal of Economic Literature*, 38(1), 11–44.
2. Stahl, Dale O. 1989. "Oligopolistic Pricing with Sequential Consumer Search." *The American Economic Review*, 79(4), 700–712.
3. Syverson, Chad. 2004a. "Market Structure and Productivity: A Concrete Example." *Journal of Political Economy*, 112(6), 1181–1222.
4. Melitz, Mark. 2003. "The Impact of Trade on Intra-Industry Reallocations and Aggregate Industry Productivity." *Econometrica*, 71(6), 1695–1725.
5. Brouthers, K. D. 2002. "Institutional, Cultural and Transaction Cost Influences on Entry Mode Choice and Performance." *Journal of International Business Studies*, 33(2), 203–221.
6. Hoskisson, R. E., Wright, M., Filatotchev, I., & Peng, M. W. 2013. "Emerging Multinationals from Mid-Range Economies: The Influence of Institutions and Factor Markets." *Journal of Management Studies*, 50(7), 1295–1321.
7. Delios, A., & Henisz, W. J. 2003. "Political Hazards, Experience, and Sequential Entry Strategies: The International Expansion of Japanese Firms, 1980–1998." *Strategic Management Journal*, 24(11), 1153–1164.
8. Brouthers, K. D., Brouthers, L. E., & Werner, S. 2008. "Real Options, International Entry Mode Choice and Performance." *Journal of Management Studies*, 45(5), 936–960.
9. Hennart, J.-F. 1986. "Internalization in Practice: Early Foreign Direct Investments in Malaysian Tin Mining." *Journal of International Business Studies*, 17(2), 131–143.
10. Isobe, T., Makino, S., & Montgomery, D. B. 2000. "Resource Commitment, Entry Timing, and Market Performance of Foreign Direct Investments in Emerging Economies: The Case of Japanese International Joint Ventures in China." *Academy of Management Journal*, 43(3), 468–484.
11. Buckley, P. J., Forsans, N., & Munjal, S. (2012). Host–home country linkages and host–home country specific advantages as determinants of foreign acquisitions by Indian firms. *International Business Review*, 21(5), 878–890.
12. Chang, S.-J., & Rosenzweig, P. M. (2001). The choice of entry mode in sequential foreign direct investment. *Strategic Management Journal*, 22(8), 747–776.
13. Deng, P. (2009). Why do Chinese firms tend to acquire strategic assets in international expansion? *Journal of World Business*, 44(1), 74–84.
14. Buckley, P. J., Devinney, T. M., & Louviere, J. T. (2007a). Do managers behave the way theory suggests? A choice theoretic examination of foreign direct investment location decision making. *Journal of International Business Studies*, 38(7), 1069–1094.
15. Makino, S., Lau, C. M. & Yeh, R. S., (2002). Asset-exploitation versus asset-seeking: Implications for location choice of foreign direct investment from newly industrialized economies. *Journal of International Business Studies*, 33(3), 403–421.
16. Frick, Susanne A.; RodríguezPose, Andrés; Wong, Michael D. "Towards Economically Dynamic Special Economic Zones in Emerging Countries". CEPR Discussion Paper No. 12840, 2018.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100